XALQ DEPUTATLAR JIZZAX VILOYATI KENGASHINING QARORI

2024 - yil 4 - yanvar VI-49-1-3-0-K/24 Jizzax viloyati hokimligi

Jizzax viloyati bo‘yicha 2024-yilda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig‘i stavkalariga hamda yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarning 1 kv.metr uchun belgilanadigan minimal miqdoriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412, 429 va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 10-noyabrdagi 19/14-112244-sonli, viloyat soliq boshqarmasining 2023-yil 30-noyabrdagi 19/10-44474-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan Jizzax viloyatida yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligida mo‘ljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun mutlaq miqdori 36,0 mln. so‘m hamda jismoniy shaxslarga 1 kv.metr uchun bazaviy soliq stavkasining mutlaq miqdori 320,0 so‘m, yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda viloyatning tumanlarida ko‘chmas mulklarga 1 kv. metr uchun 1,2 mln. so‘m minimal miqdor belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda viloyat soliq boshqarmasining hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda mahalliy

davlat hokimiyati organlarining kelgusi yil uchun belgilangan mahalliy byudjet prognozidan kelib chiqib, tumanlar va shaharlar bo‘yicha 2024-yilda yuridik va jismoniy shaxslarning bazaviy yer solig‘i stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash hamda tumanlardagi yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv. metr uchun belgilanadigan minimal miqdorga nisbatan kamaytiriluvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

3. Shaharlar va tumanlarning iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 2024-yilda Jizzax viloyati uchun mutlaq miqdoriga 1 gektari uchun belgilangan yer solig‘ining bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 1-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) 2024-yilda Jizzax viloyati uchun mutlaq miqdorda 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 2-ilovaga hamda 2024-yilda viloyatda yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun belgilanadigan minimal miqdorga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shaharlar va tumanlar xalq deputatlari Kengashlarining mahalliy byudjet prognozlarini inobatga olib, 1 va 2-ilovaga asosan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash vakolati inobatga olinsin.

5. Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida yuridik va jismoniy shaxslar uchun 2024-yilda belgilangan yer soliq stavkalarini hududlardagi soliq organlariga taqdim etilishini ta’minlasin.

6. Viloyat soliq boshqarmasi hamda hududiy soliq organlari 2024-yil uchun yuridik shaxslarning (yirik soliq to‘lovchilardan tashqari) mol-mulkiga solinadigan soliqni ushbu qaror bilan, qishloq xo‘jaligida mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tomonidan tasdiqlanadigan stavkalar asosida hisoblanishi va belgilangan tartibda undirilishini ta’minlasin.

7. Ushbu qaror “Jizzax haqiqati” va “Джизакская правда” gazetalarida

rasmiy e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Mustanov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **E.Saliyev**

Xalq deputatlari Jizzax viloyat
Kengashining
2024-yil 4-yanvardagi
VI-49-1-3-0-K/24-son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘lajallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/R	**Hududlar**	**Soliq kodeksiga asosan mutlaq soliq stavkasi** *(SK 429 -moddasi)*	**Koeffisient** *(0,5 dan 2 gacha)*	**2024-yil uchun yer solig‘ining stavkasi** *(mln.so‘mda)*
1	Arnasoy tumani	36,00	1,15	41,40
2	Baxmal tumani	36,00	1,15	41,40
3	G‘allaorol tumani	36,00	1,25	45,00
4	Sh. Rashidov tumani	36,00	1,50	54,00
5	Do‘stlik tumani	36,00	1,14	41,04
6	Zarbdor tumani	36,00	1,14	41,04
7	Zomin tumani	36,00	1,15	41,40
8	Zafarobod tumani	36,00	1,00	36,00
9	Mirzacho‘l tumani	36,00	1,00	36,00
10	Paxtakor tumani	36,00	1,25	45,00
11	Forish tumani	36,00	1,00	36,00
12	Jizzax shahar	36,00	1,70	61,20
13	Yangiobod tumani	36,00	1,00	36,00

Izoh: *tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari jismoni shaxslarning yer solig‘i stavkalarini hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega.*

Xalq deputatlari Jizzax viloyat
Kengashining
2024-yil 4-yanvardagi
VI-49-1-3-0-K/24-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) **mutloq miqdorda 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar**

T/R	**Hududlar**	**Soliq kodeksiga asosan mutlaq soliq stavkasi** *(SK 437 -moddasi)*	**Koeffisient** *(0,5 dan 2 gacha)*	**2024-yil uchun yer solig‘ining stavkasi** *(so‘mda)*
1	Arnasoy tumani	320,00	0,95	304,00
2	Baxmal tumani	320,00	0,96	307,20
3	G‘allaorol tumani	320,00	1,02	326,40
4	Sh. Rashidov tumani	320,00	1,17	374,40
5	Do‘stlik tumani	320,00	1,37	438,40
6	Zarbdor tumani	320,00	1,02	326,40
7	Zomin tumani	320,00	1,03	329,60
8	Zafarobod tumani	320,00	1,15	368,00
9	Mirzacho‘l tumani	320,00	0,97	310,40
10	Paxtakor tumani	320,00	1,03	329,60
11	Forish tumani	320,00	0,97	310,40
12	Jizzax shahar	320,00	2,00	640,00
13	Yangiobod tumani	320,00	0,95	304,00

Izoh: *tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari jismoni shaxslarning yer solig‘i stavkalarini hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga ega.*

Xalq deputatlari Jizzax viloyat
Kengashining
2024-yil 4-yanvardagi
VI-49-1-3-0-K/24-son qaroriga
3-ilova

2024-yilda Jizzax viloyatida yuridik shaxslar uchun *(yirik soliq to‘lovchilardan tashqari)* **mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun belgilanadigan minimal miqdorga nisbatan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar**

T/R	**Hududlar**	**Koeffisient** *(0,5 gacha kamayuvchi)*
1	Arnasoy tumani	1,00
2	Baxmal tumani	1,00
3	G‘allaorol tumani	1,00
4	Sh. Rashidov tumani	1,00
5	Do‘stlik tumani	0,95
6	Zarbdor tumani	0,95
7	Zomin tumani	0,95
8	Zafarobod tumani	0,85
9	Mirzacho‘l tumani	0,85
10	Paxtakor tumani	0,95
11	Forish tumani	0,75
12	Jizzax shahar	1,00
13	Yangiobod tumani	1,00